

UDK:811.512.133'373'21:37.013

ORCID: 0009-0006-9295-6545

## ISMOMUT OTA ZIYORATGOHI NOMINING KELIB CHIQISHI VA UNING TA'LIM TARBIYADAGI O'RNI

**Rajabova Nilufar Egamberganovna**

*Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Hazrati Istamut ota//Ismomut ota* ziyoratgohi juda mashhur bo'lib, voha ahli orasida "Ismomutda is bor desa, boradi" naql ham yuradi. Ismomut ota Turkmaniston Respublikasining Taxta tumani markazidan 14-16 km janubi garbda, Qoraqum etagida joylashgan. Ayni paytda Ismaut-ota majmuasi juda noyob bo'lib, uning ayrim inshootlari O'rta Osiyo me'morchiligida kam uchraydigan me'moriy turlarga mansub. Katta qabriston bilan o'ralgan majmua Eshretqal'aning o'rta asrlardagi Xorazm maskani xarobalari ustiga qurilgan. "Eshret" "zavq" degan ma'noni anglatadi, ehtimol, Ipak yo'li karvonlaridagi sayohatchilarning Qoraqum cho'li bo'ylab mashaqqatli sayohatidan so'ng Xorazm vohasining birinchi manzilgohiga etib kelganlarida his-tuyg'ularini aks ettiradi. Ismomut ota ziyoratgohida doimo ziyoratchilarning qadami uzilmaydi, asosan kasal, farzandsiz, bolalari vafot etgan ayollar tashkil qiladi.

Bu ziyoratgoh haqida yozma va og'zaki rivoyatlar yetib kelgan. Bu rivoyatlar qanchalik haqiqatdan yiroq ekanini uning paygambarimiz Muhammad alayhisalom bilan bog'liq talqin qilinishida ko'rinadi. Aholi orasida mashhur rivoyatga ko'ra, Muhammad sallallohu alayhi va sallam sahobalarga yuzlanib: "Xorazmga otashparastlar oldiga kim boradi? – deb so'rabdilar. Hech kimdan sado chiqavermagach savolini yana qaytaribdilar. Uchinchi bor so'raganlarida yosh sahoba Ismi A'zam men deb javob beribdi: – Agar ruxsat bersangiz, Xorazmga men borib qayturman. Muhammad payg'ambar sahobaga mehr bilan tikilib: – Yo'q, sen borib qaytmaysan, shu yoqda qolasan. Yosh bo'lsang ham seni Allohdan bosh etishini so'radim" – deya duo qilibdilar. Ko'rinib turibdiki, mazkur rivoyatda hech qanday sanad (asos, isbot) yo'q.

Qo'shko'pir tumanida Shix qishlog'idagi shixlar urug'i o'zlarini Ismomut ota avlodi deb bilishadi. 1997-yilda Qodir Karim o'g'lining "Ismamut ota" kitobi nashr qilingan<sup>17</sup>.

Ismi Mahmud ota ziyoratgohi tarixi shu tariqa afsona va rivoyatlar qa'rida qolib ketgan. Xiva xonligi solnomalarida ham Ismi Mahmud ziyoratgoh va qadamjo sifatida tilga olinsa ham, uning tarixiga oid muayyan ma'lumot keltirilmaydi. Masalan, Ismi Mahmud "Firdavs ul-iqbol" ikki marta tilga olinadi: "Sohibqironi jannatmakon uch kun Badrkandda tavaqquf ko'rguzub, *Hazrati Ismi Mahmud atoni* ziyorat qilib, nuzuroti vofur va sadaqoti mutakosir bila ostoni maloyikposbon jorubkashlarin bahramand etib,

<sup>17</sup> <https://ok.ru/group/56642336850002/topic/152523928513362>

to'rtlanji kun Toshhavzning atrofin qo'shlab, ikki kecha onda oromgo'zin bo'lub, murojaat ko'rguzdi"<sup>18</sup> yoki "*ismi Mahmud atoning ustidin cho'lg'a kirib,..*"<sup>19</sup>.

Yana bir afsonaga ko'ra, u aslida ikki kishi bo'lgan. Hikoya taxminan quyidagicha davom etadi, garchi bir nechta versiyalar mavjud. Isim ismli yigit Muhammad payg'ambarning zamondoshi va izdoshi bo'lib, o'z ixtiyori bilan Xorazmga yo'l oladi, voha xalqlarini islom diniga kiritadi. Isim bor-yo'g'i 40 kishi hamrohligida Eshretkalaga yetib bordi va u yerda Mahmut ismli mahalliy sultonni islom dinini qabul qilishga ko'ndirishda qiynalmadi. Keyin Isim vafot etdi va Mahmut uning nomini Isim nomi bilan birga eslab qolishini o'ylab, uning uchun dabdabali dafn marosimlarini tashkil qildi. "Isim" Said ibn Musayib ismli shaxs bo'lishi mumkin degan taxminlar bor, ammo uning Xorazmni islomlashtirishda ishtirok etgani haqida hech qanday ma'lumot yo'q, Ismomut otaoning shaxsi esa sirligicha qolmoqda.

Xalq orasida Ismomut ota, bu mintaqaning boshqa ko'plab mo'jiza yaratuvchi avliyolari singari, Xorazm sug'orish tarmog'ini "yaratish" va undan keyingi "homiylilik" ning tashuvchisi bo'lgan.

Xorazmda *Ismostona* – Ismi ostona nomli ziyoratgohlar ham borki, bu holat nomlar tarkibidagi *ism* qismi aslida qadimgi xorazmiy tilidan meros *joy, makon* ma'nolarini bildiruvchi so'z bo'lishi ehtimolga yaqin.

Ushbu ziyoratgohdan ham mamlakatga dushman hujumlari sodir bo'lgan mahalda aholini vatan himoyasiga chorlash maqsadida muqaddas mozorlarning aholi orasidagi mavqeidan foydalanilgan. Chor Rossiyasining istilochilik yurishlari vaqtida, bolsheviklarning davlat tepasiga kelgan vaqtda mahalliy ruhoniylar va eshonlar Taxtada joylashgan Ismamut ota ziyoratgohi istiqloqlilik harakati namoyondalari yashiringan joy bo'lgan va ular halqni bolsheviklarga qarshi "muqaddas urushga" chorlagani to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Xatto istiqloqlilik harakatining namoyondalaridan biri bo'lgan Junaidxon bu ziyoratgohni o'z rezidensiyasiga aylantirgan to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan<sup>20</sup>.

Bundan tashqari Xiva xonlari jangu-jadallardan oldin muqaddas joylarni ziyorat qilganlar, ulardan madad so'raganlar va hayru-ehson qilganlar. Jumladan xonlardan Muxammad Raximxon I va Sayid Muxammadxonlar turkman qabilalari bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni xal qilish jarayonida Ismomut ota ziyoratgohini ziyorat qilganlar<sup>21</sup>.

Ziyoratgohlarni yoshlarni ilm-fanga muhabbat, ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash yo'lida hamda ularda poklik, to'g'rilik, kamsuqumlik, mehr-shafqat, halol

<sup>18</sup> Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. – C. 1001.

<sup>19</sup> Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. – C. 1042.

<sup>20</sup> Снесарев Г.П. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. Москва., 1983. С.74.

<sup>21</sup> Снесарев Г.П. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. Москва., 1983. С.74.

kun kechirish, nafsni tiyishga intilish, imonli bo'lish kabi asl insoniy fazilatlar namoyon qilishda ahamiyati katta.